

MAHMUD ZAMAXSHARIY ASARLARIDA “USTOZ-SHOGIRD” MUNOSABATLARI



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2026-22-288-292>

Oqilov Ahrorjon Bahromjon o‘g‘li

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Sharq falsafasi va madaniyati mutaxassisligi*

1-kurs magistrant

Doktorantura bo‘limi bosh mutaxassisi

E-mail: oqilovahrorjon@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0009-0002-0932-3474>

Ilmiy rahbar: Laziz To‘rayev

Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Ph.D), dots.,

Doktorantura bo‘limi boshlig‘i

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

E-mail: laziz_torayev@tsuos.uz

ORCID: <https://orcid.org/0000-0003-3666-6229>

Annotatsiya. Ushbu maqolada, tafsir ilmida “Al-Kashshof”, tilshunoslikda “al-Mufassal”, “Asos ul-balog‘a”, didaktik janrda “Muqaddimat ul-adab”, “Maqomat”, “Navobig‘ ul-kalim”, “Rabi‘ ul-abror” kabi asarlar bilan mashhur bo‘lgan qomusiy olim Mahmud Zamaxshiriy asarlarida “ustoz-shogird” an‘anaviy tizimi haqida ma‘lumot beriladi.

Kalit so‘zlar: Mahmud Zamaxshariy, ustoz va shogird, Odob al-mutaallim “Atvoq uz-zahab”, ma‘naviy-axloqiy tarbiya, ilmiy meros, murid, murshid, isnod.

KIRISH

Sharq qadimdan ham o‘zining etikasi, intuitiv bilimlardagi namunasi, didaktik qarashlari bilan unikalligini ko‘rsatib kelgan. Sharq faylasuflarining aksariyati asosiy urg‘uni insonning axloqi, uning hammaga manfaat keltiruvchi estetikasini shakllantirish, tartibli va uyushgan kollektivizm muhitini yaratish maqsadida ilmiy va amaliy faoliyat bilan shug‘ullanganlar. Hamma uchun mayoq bo‘lishi lozim bo‘lgan barkamollik va mukamallik haqidagi g‘oyalar ham aynan Sharq mutafakkirlarining diqqat markazidagi asosiy masala edi. Xususan, Kun Szining adolatli, insonparvar, an‘analarga sodiq, so‘zi va amali bir “oliyjanob kishi” g‘oyasi, Farobiyning haqiqatni sevuvchi, mol-dunyoga hirs qo‘ymagan, adolatli “fozil odam” g‘oyasi, tasavvuf vakillarining nafsini tiygan holda ilohiy ishq bilan Yaratganga yetishishni umid qilgan “komil inson” tushunchalari buning yaqqol misolidir.

Yuqoridagilarni umumlashtirib nisbatan universal ibora sifatida “komil inson” tushunchasini tanlab oladigan bo‘lsak, bu insonni tarbiyalash o‘z-o‘zidan sharqona “ustoz-shogird” an‘anasi markaziy o‘rin egallaydi. Sharqda ustoz nafaqat ta‘lim beruvchi, balki, u tarbiyachi, ichki olamning muarrix, ota bilan tenglashtirilgan maqom sohibi hisoblanardi. Tolib ustozga topshirilar ekan “eti sizniki suyagi bizniki”

yoki “sen o‘zingni ustozga topshirganingda g‘assol qo‘lidagi mayyit deb hisobla” (*arabcha كالميت بين يدي الغاسل*) kabi iboralar ilmiy muhitning asosiy xarakterini belgilaydigan jihatlaridan hisoblangan. Ushbu jumlar ortida esa ustozning mutlaq dominant qiyofasi gavdalantirilgan. Shogirdning ustoz odidagi ilmiy va ijtimoiy muloqoti itoatkor odam ko‘rinishini kasb etgan.

“Ustoz-shogird” an‘anasi vorisiylik tamoyili negizida vujudga kelgan bo‘lib, uning mohiyatida ilm-adabni saqlash, uning ishonchligini ta‘minlash, ilming qiymatini yuksakka ko‘tarish, oddiy xalq orasida ilm ahliga hurmatni oshirish, ta‘limiy davra muhitini yaratish turgan. Bu tizim uzoq asrlar davomida fundamental qabul qilingan me‘yor deb qabul qilindi. Keyinchalik, shu tizim islomda sanad orqali ilm olish, isnod ro‘yxatining paydo bo‘lishiga zamin yaratdi.

“Ustoz-shogird” tizimi turfa xil zamon va xilma xil makondan kelib chiqib turli usullarga moslashtirildi. Bu tizimni yaratishda qomusiy olimlarning xizmati, albatta, beqiyos bo‘lib, ular tomonidan didaktik asarlarning bir qancha boblarida bu masala tilga olindi. Yakunda esa, bu kitoblar kumulyativ tarzda silsilani tashkil qilib kelishilgan axloq kodeksini vujudga keltirdi. Ushbu qiyin vazifani amalga oshirishda Kaykovus, Yusuf xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Ahmad Yassaviy va boshqa sanoqsiz olimlarning mehnati bemisl xizmat bo‘ldi. Shunday olimlardan biri, shubhasiz, Mahmud Zamaxshariy hisoblanadi. Mahmud Zamaxshariy o‘zining “Atvoq uz-zahab”, “Maqomat”, “Rabi ul-abror” va boshqa bir qancha asarlari orqali bu an‘anaviylikda ustoz va shogirdga xos bo‘lgan va bo‘lishi kerak bo‘lgan xususiyatlar, illatlar va fazilatlar, beodobliklar va husnixulqlar haqida o‘z mushohadalarini beradi. Ularni boshqa davr va makon vakillaridan keltirilgan misollar bilan asoslantiradi.

Asosiy qism.

Mahmud Zamaxshariy “ustoz va shogird” tizimi munosabatlariga to‘xtalar ekan, uni bevosita ilm va ilmga bo‘lgan muhabbat va e‘tibor bilan aloqador ekanligini ko‘rsatadi. Insonning ta‘limiy jarayonlarda bilim olishga bo‘lgan himmati va ta‘lim berishga bo‘lgan sa‘y-harakatlari, avvalo, ularning ilmga bo‘lgan ehtiromining in‘kos etishidir, deb hisoblaydi. Buning uchun esa ilmning qiymatini bilish zarurdir. Zamaxshariyning fikricha, bilim u egalik qilgan kishining mavqeyining ulug‘lanishiga sabab bo‘ladi. Bilimli kishining faqir va nochor oiladan yoki tabaqadan chiqishi uning qiymatini hech qachon kamaytirmaydi, bilaks, badavlat kishining nodon va johil bo‘lgani holda o‘z ahamiyatini boylik yoki nasab bilan namoyish etolmasligini uqtiradi. Zamaxshariy fikriga ko‘ra ilm insonni zarar va yomonliklarning xataridan muhofaza qilishga qodir bo‘lgan ota misolidir. Taqvo esa panoh istaganni bag‘riga bosib saqlagan onadir [1,22]. Ilm va taqvo birlashib mukammal tandemni hosil qiladi. Zamaxshariy har bir insonga bilim olish zarurl, ilm va taqvoni mahkam tutishni esa lozim va lobid degan tavsiyani beradi. Ilm, asli, qudratlidir,-deydi Zamaxshariy. U bilan ko‘plab yetib bo‘lmas cho‘qqilarni zabt etish, yetib bo‘lmas marralarni egallash mumkin. Bilim imkonsiz ko‘ringan ishlarni ham amalga oshirishga vosita – bo‘la oladi. Biroq, jaholat ba‘zan undan ham kuchlilik qiladi. Jaholat o‘zi bilan yengillikni olib yuradi, layoqatsiz inson unga hamqadam bo‘lishi qulay va yoqimlidir, lekin, u insonni chiqib bo‘lmaydigan, oxiri nadomatga to‘la chox sari yetaklaydi. Jaholat –

bilimsizlikning oxiri fojea va falokatlidir. Zamaxshariy haqiqiy bilim insonni Haq sari yetaklovchisidir, deb hisoblaydi. Ilmsizlik esa undan uzoqlashtiradi. Shu bilan bir qatorda foydasiz ilmlar ham bo‘lib, ular faqat kibr, mol-dunyo to‘plash va e‘tibor jalb qilish uchungina hosil qilingan ilmlardir.

Mahmud Zamaxshariyning tavsiyasiga ko‘ra olim birinchi navbatda ilmni nima uchun olganini hamda nima uchun ta‘lim beryotganini, talaba esa nima uchun ilmga rag‘bat qilgani, unga erishganidan keyin uni qanday ishlarga sarf qilishini oldindan aniqlab olishi, shundan kelib chiqib harakat qilishini aytadi. Bunda maqsad aniq va to‘g‘ri bo‘lmasa oqibati nadomat bo‘ladi. Shuningdek, u Aristoteldan shunday misol keltiradi: “Oqil oqil bilan til topishadi, lekin nodon hech kim bilan kelisha olmaydi” [2,66].

Bir o‘rinda esa ustoz va shogird o‘rtasida mutanosiblik xususida Zamaxshariy shunday iqtibos beradi: “Dualiy: Agar bir olimni qiynamoqchi (azoblamoqchi) bo‘lsang, unga bir nodonni hammishin (hamroh) qilib qo‘y” [2,67]. Olim uchun hayotning eng oliy mazmuni va zavqi — haqiqatni anglash, ilm cho‘qqilarini zabt etish, mantiqiy mushohada va ma‘naviy yuksalishdir. U borliqni sabab va oqibat qonuniyatlari asosida ko‘radi, har bir hodisaga chuqur mantiq bilan yondashadi. Nodon esa voqelikni faqat yuzaki idrok etadi, his-tuyg‘ularga, asossiz gumonlarga va jaholatga tayanib ish tutadi. Mana shu ikki xil dunyoqarash bitta nuqtada to‘qnashganda, olim uchun jismoniy qiynoqdan ham og‘irroq bo‘lgan ma‘naviy va ruhiy azob boshlanadi. Iso (a.s.)ga nisbat berilgan yana bir nuqtada esa: “Iso (a.s.) aytdi: “Men tug‘ma ko‘rlarni va pes kasalligiga chalinganlarni davoladim va ularning har ikkisi ham shifo berdim. Ammo ahmoqning aqlsizligini davolashga kirishganimda, u meni charchatdi va ojiz qoldirdi” [2,68]. Tug‘ma ko‘rlik yoki pes (vitiligo) o‘sha davr tibbiyoti chorasiz hisoblagan, inson irodasiga bog‘liq bo‘lmagan og‘ir jismoniy nuqsonlar edi. Payg‘ambarga berilgan mo‘jiza tufayli bu xastaliklarga shifo topilgani, moddiy dunyodagi har qanday jismoniy kamchilikning muolajasi borligiga ishora qiladi. Chunki jismoniy bemor o‘z dardini his qiladi, undan qutulishni istaydi va tabibga, haqiqatga qarshilik ko‘rsatmaydi. Ko‘zining ko‘rmasligini bilgan odam o‘ziga yo‘l ko‘rsatgan yetakchiga ergashadi. Biroq, ahmoqlik butunlay boshqa tabiatga ega. Bu yerda “ahmoq” iborasi shunchaki aqliy zaif insonni emas, balki bilimsiz bo‘la turib o‘zini dono hisoblaydigan, haqiqatni ko‘rishni istamaydigan, o‘z xatolarida qaysarlik bilan turib oladigan kimsani anglatadi. Ahmoqlikning eng katta xavfi va davosizligi shundaki, u o‘zining kasalligini aslo tan olmaydi. O‘zini nuqsonsiz deb bilgan odam esa shifoga ham, to‘g‘ri so‘zga ham ehtiyoj sezmaydi.

Ustoz doimo Sharqda e‘zozlangan, ammo, ta‘lim va tarbiya beruvchining ham tarbiyalanuvchi oldida mas‘uliyatlari bo‘lib, bular balki ko‘proq muhimdir. Mahmud Zamaxshariy shunga ishora qilib quyidagi suhbatni keltiradi: Zuhayr ibn Nuaym bir kishining o‘z farzandi bilan ketayotganini ko‘rib, so‘radi: — Bu sening o‘g‘lingmi? U kishi: — Ha, — deb javob berdi. Zuhayr aytdi: — Ogoh bo‘l! Farzanding seni Allohga osiy bo‘layotgan holatda ko‘rib qolishidan qattiq hazar qil! Aks holda, uning nazdida sening haybating va hurmating qolmaydi, u senga nisbatan haddidan oshib, beodoblik qiladigan bo‘lib qoladi. [2,61]. Kichik yoshdagi farzand uchun ota-ona, ayniqsa ota

siymosi dunyodagi eng mukammal, eng kuchli va eng adolatli zot hisoblanadi. Bola hayotni, yaxshi va yomon o‘rtasidagi chegaralarni aynan ularning xulq-atvori orqali taniydi. Rivoyatda ta’kidlanganidek, agar ota farzandi ko‘z o‘ngida Yaratganga osiy bo‘lsa — ya’ni yolg‘on gapirsa, bironing haqiga xiyonat qilsa, zulm yoki biror bir axloqsiz jinoiy ishga qo‘l ursa — bolaning ongida o‘ziga xos ma’naviy inqiroz yuz beradi. Bola har doim to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatuvchi deb bilgan Mayoqining o‘zi egri ekanini ko‘rgach, uning qalbida ota shaxsiga nisbatan ishonch va hurmat poydevori darz ketadi. “Haybat va hurmatning yo‘qolishi” esa tarbiyadagi eng xavfli nuqtadir. Ota-onaning so‘zi bolaga ta’sir qilishi uchun u ma’naviy kuchga ega bo‘lishi kerak. O‘zi gunoh va illatlardan tiyilmagan otaning so‘zi quruq nasihatga aylanadi va bola nazarida o‘z qimmatini yo‘qotadi. Natijada, farzandda ota-onaning gapiga nisbatan bepisandlik, itoatsizlik va haddidan oshish illatlari bosh ko‘taradi. Chunki bola o‘z ichida: “Menga taqiq qo‘yayotgan insonning o‘zi ham bu qoidalarni buzadi-ku”, degan xulosaga keladi va ota-ona yoki ustozni tarbiyachi sifatida tan olmay qo‘yadi.

IX–XII asrlar davomida islom dunyosida yuz bergan ilmiy va madaniy inqilob jahon tarixshunosligida “Sharq Renessansi” yoki “Islom oltin davri” degan nomlar bilan e’tirof etiladi. “Dunyo ilm-fanida Renessans sifatida baholangan IX-XII asrlar o‘zining din bilan hamohang bo‘lganligi bilan ham xarakterlanadi. Bu davrda yaratilgan fan yutuqlarining aksari aynan shu o‘ziga xoslik bilan bog‘liq bo‘ldi” [3,280]. Ushbu davrning butun insoniyat sivilizatsiyasi rivojiga qo‘shgan buyuk hissasi, eng avvalo, uning o‘ziga xos xarakteri — ilm-fanning din bilan o‘zaro uyg‘unlikda va hamohanglikda taraqqiy etgani bilan belgilanadi. G‘arb sivilizatsiyasida intellektual yuksalish ko‘p hollarda diniy dogmalarga qarshi isyon va cherkov ta’qiblaridan qutulish fonida kechgan bo‘lsa, Sharq Renessansida din ilm-fanning dushmani emas, aksincha, uning eng quvvatli harakatlantiruvchi kuchi, ilhom manbayi va axloqiy poydevori sifatida maydonga chiqdi.

XULOSA

Birinchi, Mahmud Zamaxshariy qarashlarida chinakam murabbiy nafaqat ilm beruvchi, balki shogirdning ma’naviy olamini shakllantiruvchi yetakchidir. Alloma ustozning shogirdga nisbatan otalarcha mehribon, kechirimli bo‘lishi bilan birga, uning axloqiy qiyofasini tarbiyalashda talabchan bo‘lishini ham yoqlaydi. Eng muhimi, ustoz o‘zining amaliy hayoti va odobi bilan shogirdga birinchi navbatda shaxsiy etalon bo‘lishi shart. Zamaxshariy so‘zi bilan amali zid bo‘lgan olimlarni qoralaydi va tarbiyaning asosi go‘zal xulq-atvorda ekanini uqtiradi.

Ikkinchi, alloma asarlarida ilm talab qiluvchi shogirdning ruhiy-axloqiy holatiga alohida e’tibor qaratiladi. Zamaxshariyning fikricha, shogird ustoz huzurida mutavoze bo‘lishi, berilayotgan saboqlarga yuksak ixlos bilan yondashishi lozim. Ilm egallash shunchaki kitob o‘qish emas, balki nafsni tarbiyalash va mashaqqatlarga sabr qilishdir. Shogird ustozning o‘g‘itlarini hayotiy dasturilamal deb bilishi va uning hurmatini yuksak o‘ringa qo‘yishi — ilmiy muvaffaqiyatning bosh omili sifatida baholanadi.

Uchinchi, Mahmud Zamaxshariy “ustoz-shogird” tizimidagi yakuniy maqsadni shunchaki ma’lumotlar to‘plashda emas, balki olingan ilmning jamiyatga,

xalqqa xizmat qilishida ko‘radi. Ustoz shogirdiga ilmni ulashishni o‘zining muqaddas burchi deb bilsa, shogird ham kelajakda bu ilmiy omonatni munosib vorislarga yetkazishi — “ustoz-shogird” an‘anasining uzviyligini ta‘minlashi kerak. Alloma nazdida amalsiz ilm - mevasiz daraxt kabidir; shu bois, har bir o‘rganilgan qoida va odob insonning kundalik turmushida, adolat va ma‘rifat tarqatishda o‘z aksini topishi shart.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mahmud Zamaxshariy. Oltin shodalar. T.:”Extremum press” nashriyoti, 2010. – B. 83.
2. Маҳмуд ибни Умари Замахшарӣ. Хираднома (Хазору як гуфтор аз «Рабеъ-ул-аброр»)/Инти- хоб, тарчума ва тавзеҳи Фахриддин Насриддинов. - Хучанд: Хуросон, 2023. - 248 с.
3. ГАЛЕНА, Г., & АЗ-ЗАМАХШАРИ, В. П. М. МАҲМУД ЗАМАХШАРИЙНИНГ “РАБИ’ АЛ-АБРОР” АСАРИДА YUNON FAYLASUFI JOLINUS QARASHLARINING FALSAFIY TAHLILI Oqilov Ahrorjon Bahromjon o‘g‘li.